

## «O`QUVCHILARDA GEOGRAFIYA FANIGA BO`LGAN QIZIQISHNI OSHIRISH METODLARI»

*Qashqadaryo viloyati Kitob tumani*

*2-maktabning geografiya fani o`qituvchisi*

***Bo`ronova Durdona Shuhrat qizi***

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O`zbekistondagi umumiy o`rta ta`lim maktablaridageografiya fanini o`qitishni yanada rivojlantrish, fanning nufuzini oshirish yo`llari to`g`risida misollar keltrilgan.

**Kalit so`zlar.** geografiya, tabiiy, iqtisodiy, geografiya maydonchasi, fluger, borometor, harita, globus.

Geografiya - bu Yerning inson sayyorasi sifatida yaxlit ko`rinishini ta`minlaydigan yagona o`quv fani deb hisoblash mumkin. U shuningdek umumiy madaniyatni, shu jumladan ekologik madaniyatni shakllantiradi; barcha darajalarda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zaruriy majmuadir. Fanning yana bir muhim jihati bir nechta manbalardan olingan ma`lumotlarni qanday qilib birlashtirishga, ma`lum bir xalqaro aloqa tili - geografik xaritadan foydalanishga o`rgatadi. Geografik ta`lim insoniyat uchun umumiy uy sifatida o`z mamlakati va sayyoramizni o`rganish uchun ishonchli asosdir. Aynan shu ta`lim zamonaviy dunyo va insoniyatning xilma-xilligi va birligi bilan birligini ongli ravishda tushunishni ta`minlaydi. Bugungi kunda boshqa fanlar qatorida geografiyani o`qitishda o`quvchilarni o`quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta`lim tarbiya jarayonini samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo`llash borasida katta tajriba to`plangan bo`lib ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar ya`ni interfaol metodlardan foydalaniladi. Geografiya va tabiatni bilish muhim ahamiyat kasb etganligi bois uni o`qitish tizimini isloh etish, dars jarayonlarida zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o`qitishni ilg`or usullarini qo`llash ta`lim

tizimidagi dolzarb masalalardan biri hisoblandi. Shu asnoda yangi darsliklar, o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratilmoqda. Ular o'quvchilar savodxonligini oshirish, aqliy qobiliyatini rivojlantirish, nutqni o'stirish, ijodiy fikrlay olish hamda ta'lim-tizimlari orasidagi uzviylikni ta'minlashga qaratilmoqda. Geografiya va tabiatni bilish muhim ahamiyat kasb etganligi bois uni o'qitish tizimini isloh etish, dars jarayonlarida zamonaviy pedagogic va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishni ilg'or usullarini qo'llash ta'lim tizimidagi dolzarb masalalardan biri hisoblandi. Shu asnoda yangi darsliklar, o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratilmoqda. Ular o'quvchilar savodxonligini oshirish, aqliy qobiliyatini rivojlantirish, nutqni o'stirish, ijodiz fikrlay olish hamda ta'lim-tizimlari orasidagi uzviylikni ta'minlashga qaratilmoqda. Shu asnoda geografiya fani o'qitilishining innovatsion shakllarini quyidagicha olibboorish maqsadga muvofiq:

- frontal o'qitish;
- jamoa bo'lib o'qitish;
- guruhlariga bo'lib o'qitish;
- juftlikda ishlash; individual o'qitish;

O'qitishning umumiy shakllarini ajratish o'qituvchi va o'quvchi, o'quvchi va o'quvchi o'rtasidagi kommunikativ aloqa xususiyatlariga asoslanadi.

- Frontal o'qitish - o'qitishning an'anaviy shakllaridan biri hisoblanib o'qituvchi butun sinf bilan yagona mazmun, maqsad va vazifalar asosida ish olib boradi. Bu o'qitish shaklida amaliy, suhbat, ko'rgazmalilik metodlarini qo'llashda hamda o'quvchilar bilimini nazorat qilishda foydalaniladi. O'qitishning frontal shaklida dars o'qituvchi an'anaviy usuldagi kabi tushuntirib, savol-javob o'tkazish bilan emas, balki o'qituvchi va o'quvchi orasidagi suhbat, yangi tushunchalarni muhokama etishi hamda birgalikda yechimlarini topishdan iborat. Bunda darsning bir qismi xarita bilan ishlashga mo'ljallanadi va o'quvchi uchun mustaqil ishlashga imkon beriladi. O'qituvchi esa maslahatchi sifatida faoliyat yuritadi.

- Jamoa bo'lib ishlash - o'qitishning frontal shaklidan shunisi bilan farq qiladiki, bunda sinf o'quvchilari o'z sardoriga va alohida o'zaro aloqa qilish xususiyatlariga ega yaxlit bir jamoa kabi qaraladi.

- Guruhlarga bo'lib ishlash - o'quvchilar turli xususiyatlarga asoslangan va turli muddatda shakllangan gurug'larga bo'linadi. O'qitishning bu shaklidan foydalanilganda, guruhlar ichida jadal axborot almashinuvi amalga oshadi. Shu sababli shakllantirilayotgan guruhlar tarkibi turli bilim darajasiga va turli qiziqishga ega o'quvchilardan iborat bo'lishi muhim. Turli bilim darajasidagi o'quvchilarning bir-biri bilan muloqot qilishi natijasida bilim, ko'nikma va malakarini o'zlashtirish samaradorligi yanada ortadi.

- Juflikda ishlash - o'zaro hamkorlik ikki o'quvchi orasida kechadi, bu holda ular bir vazifani tahlil etishlari, bir-biriga o'rgatishlari va bir-birlarini nazorat qilishlari ham mumkin. Shuni ta'kidlash lozimki, ayrim hollarda o'quvchilarga sinfdoshining yordami o'qituvchisining yordamidan ko'ra ko'proq samara beradi.

O'quvchilar o'zlarini o'rab turgan moddiy, ma'naviy va madaniy qadriyatlarni va insonning kosmosda mavjud bo'lishining ma'nosini to'g'ri tushunishlari uchun juda katta geografik bilimlarni to'plashi zarur. O'quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etishda maktab o'quvchilari uchun zamonaviy o'quv qo'llanmalariga katta ahamiyat beriladi. Sir emaski, o'qitishning asosiy vositasi hanuzgacha atlas bilan jihozlangan darslikdir. Shu bilan birga, samarali o'qitish o'quv-uslubiy majmuasi deb ataladigan boshqa bir qator o'quv qo'llanmalaridan (dasturlar, ko'rsatmalar, o'quv daftarlari) foydalanishni o'z ichiga oladi. Ammo o'quv materiallaridan tashqari, boshqa o'quv qo'llanmalari ham qo'llaniladi: audiovizual va ekran-tovush, shuningdek turli xil interaktiv o'quv vositalari (multimedia ensiklopediyalari va qo'llanmalari, moslashtirilgan dasturiy va uslubiy majmualar va shunga o'xshash elektron darsliklar, test dasturlari). Har qanday yangi texnologiyani o'zlashtirish bilan o'qituvchining yangi pedagogik tafakkuri boshlanadi: uslubiy tilning ravshanligi, tuzilishi, metodikada asosli me'yor paydo bo'lishi.

Hozirgi kunda yurtimizda har bir sohada keng ko`lamli islohotlar olib borilmoqda. Shu jumladan ta`lim sohasida ham kata o`zgarishlar kuzatilmoqda. Ayniqsa yurtboshimiz “Yangi O`zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” deb ta`kidlaganlari davlat miqyosida maktablarga naqadar katta e`tibor qaratilayotganidandalolat berib turibdi. Har bir sohada bo`lganidek ta`lim sohasida ham, xususan maktablarda dars jarayonlarini tashkil etishda ham qisqa vaqt ichida ancha yutuqlarga erishildi. Shu bilan birga hali qilinishi kerak bo`lgan ishlar anchagina ekanligini ta`kidlashimiz mumkin. Ma`lumki, umumta`lim maktablarda 5 sinfdan 10 sinfgacha “Geografiya” fani o`qitiladi. Lekin hozirgi kunda o`quvchilarni geografiya faniga qiziqtirish oson emas. Geografiya fani o`quvchilarni har tomonlama keng fikrlashga, dunyoni teran anglashga, tabiiy va iqtisodiy shart-sharotlarni to`liq tushunib yetishga o`rgatadigan fan desak, mubolag`a bo`lmaydi. Bundan tashqari ushbu fanni yaxshi bilgan, yaxshi o`zlashtirgan o`quvchi fikrlash doirasi ham har tomonlama boshqa o`quvchilarga nisbatan ancha yuqori bo`lishi amaliyotda isbotlangan. Umuman olganda, geografiya fanini maktablarda nufuzini oshrish borasida ishlar juda ham oqsamoqda va muammolar yetarlicha. Xo`sh, geografiya fanini maktablarda nufuzini oshrish uchun qanday amaliy ishlar qilish kerak? Birinchi navbatda xalq ta`limi vazirligi hududiy bo`linmalari joylarda ya`ni maktablardagi geografiya fanidan dars berayotgan geograf o`qituvchilarni qiynayotgan masalalarni o`rganishi talab etiladi. Maktablarda geografiya fani uchun moddiy texnik bazalari yetishmaydi, borlari ham hozirgi kun talabiga javob bermaydi. Misol tariqasida, 5-sinflarni o`qitishda turli xil ko`rgazmali vositalar: vulqonlarni maketi, shamol yo`nalishini aniqlaydigan fluger aparati, bosimni o`lchaydigan barometr kabi jihozlarning yetishmasligi darsning sifatiga ta`sir ko`rsatmay qolmaydi. Hozirgi kunda maktablarda geografiya fanining o`qitilishidagi eng asosiy o`uv quroli bo`lgan geografik xaritalarning yetishmasligi hech kimga sir emas, borlari ham eski va maktab darsliklariga muvofiq kelmaydi. Mavjud xaritalardan foydalanib mavzuni yoritish judayam mushkul. Ba`zi maktablarda umuman yo`q. Shu sababli har bir maktabda direktor jamg`armasidan bo`ladimi yoki xalq ta`lim vazirligi

xuzuridagi jamg`armalar hisobidan bo`ladimi maktablarda geografiya fani uchun kerak bo`lgan xaritalar sotib olinishi kerak. Har bir maktabda geografiya maydonchasini tashkil qilish ham fanni rivojlantrish yo`lidagi ijobiy siljish bo`lib xizmat qiladi. O`quvchilar geografiya maydonchasida sinf xonasida olgan nazariy bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlab borishadi. Bundan tashqari darsliklar masalasida 7-sinf O`rta osiyo tabiiy geografiyasi kursi shu yoshdagi sinf o`quvchilari uchun biroz murakkab yozilgan. Mavzular judayam murakkab o`quvchi ma'lumotlarni esda saqlab qololmaydi. Darslikda yoritilgan mavzularda turli xil ko`rgazmali rasmlar juda ham kam, uning o`rniga esa esda saqlab qolish qiyin bo`lgan jadvallar kiritilgan. Ushbu darslikni ham yangicha zamonaviy ko`rgazmali vositalar yordamida boyitilgan malumotlar asosida qayta ko`rib chiqish va kamchliklarini bartaraf etish zarur. Shu o`rnida aytganda, geografiya fanini maktablarda nufuzini oshirish, o`quvchilarni ushbu fanga qiziqtirish uchun qilinishi kerak bo`lgan ishlar hali anchagina. Fanni rivojlantirishda birinchi navbatda, kuchli geograf o`qtuvchi pedagoglarning ahamiyati beqiyos hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Jurayeva, L. V., & Yeshinbetova, G. A. (2020). NOZOOGEOGRAFIK VAZIYATNI YAXSHILASHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY VA EKOLOGIK MUAMMOLARNI O`RGANISH PRINSIPLARI. Academic research in educationalsciences, (4), 630-638.
2. Иброимов, Ш. И. Ў., & Болтаев, М. Ж. (2020). Ўзбекистон тоғ-водийларининг экотуристтик имкониятлари ва улардан фойдаланиш. Academic Research in Educational Sciences, (1).
3. Radjabov, F. (2020). Describe the Individual Food Industry Contents and their Role in the Delivery of Agricultural Products. International Journal of Progressive Sciencesand Technologies, 19(1), 292-294.
4. Шерзод Иброим Ўғли Иброимов, Мансур Фарманович Бўрибеков, & Мақсуда Анвар Қизи Сатторова (2020). ЁШ АВЛОДГА ЭКОЛОГИК ТУРИЗМНИНГ МАЗМУН-МОЊИЯТИНИ ЕТКАЗИШ. Academic research in educational sciences, (3), 275-279.